

KASBIY STANDART

Qishloq xo'jaligi ekinlari laboranti

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart „Agrokimyoviy tahlil laboranti“ va “Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinovdan o'tkazish sifatini baholash bo'yicha texnik-laborant” kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy

va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 5-apreldagi "2023-yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-113-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Qishloq xo'jaligi ekinlari laboranti	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Qishloq xo'jaligi ekinlarining sifati, unumdorligi va kasalliklarga chidamliligini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish, tahlillar qilish va tajribalar o'tkazish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A seksiya Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 01 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish 01.6 Qishloq xo'jalik sohasidagi yordamchi faoliyat turlari 01.61 Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari 01.61.2 O'simliklarni kasallik va zararkunanda hashoratlardan, shuningdek kemiruvchilardan himoya qilish	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Qishloq xo'jaligi sohasida ekinlar sifati, unumdorligi va barqaror ishlab chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat. Ushbu kasbiy faoliyatda laboratoriya sharoiti va dala tajribalarida ishlash, ekinlarning genetik xususiyatlari, tuproq tarkibi, o'g'itlar ta'siri va kasalliklarga qarshi chidamliligi tahlil qilinadi	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31419001 Agrokimyoviy tahlil laboranti	5
		31421012 Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinovdan o'tkazish sifatini baholash bo'yicha texnik-laborant	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31419001 Agrokimyoviy tahlil laboranti	A1.5	Tuproq, o'simlik va o'g'itlarning agrokimyoviy tahlilini o'tkazish	A1.01.5	Namuna tayyorlash va tahlil o'tkazish
				A1.02.5	Tahlil natijalarini rasmiylashtirish
		A2.5	Agrokimyoviy moddalar va pestitsidlarning sifatini nazorat qilish	A2.01.5	Sifat sinovlarini o'tkazish
				A2.02.5	Xavfli moddalar monitoringini o'tkazish
2	31421012 Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinovdan o'tkazish sifatini baholash bo'yicha texnik- laborant	B1.5	Ekin navlarining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash	B1.01.5	Namuna olish va namunalarni tahlil uchun tayyorlash
				B1.02.5	Fizik va kimyoviy tahlillarni amalga oshirish
		B2.5	Sinov jarayonlarini monitoring qilish va hisobot tayyorlash	B2.01.5	Sinov jarayonlarini kuzatish va nazorat qilish
				B2.02.5	Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Agrokimyoviy tahlil laboranti	
Mashg'ulot nomining kodi:	31419	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Laboratoriya sharoitida kimyoviy moddalar bilan ishlashga cheklovning mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, stressli vaziyatlarda samarali muloqat qilish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinovdan o'tkazish sifatini baholash bo'yicha texnik-laborant
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5-Tuproq, o'simlik va o'g'itlarning agrokimyoviy tahlilini o'tkazish	A1.01.5- Namuna tayyorlash va tahlil o'tkazish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Namuna yig'ish va tayyorlash
		2. Agrokimyoviy tahlillarni amalga oshirish
		3. Ma'lumotlarni raqamli tahlil qilish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Namunalarni texnik talablarga muvofiq tayyorlash va foydalanish
		Zamonaviy tahlil usullaridan samarali foydalanish
		Laboratoriya jihozlarini boshqarish
		Raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish
		Hisobot tayyorlash va taqdim etish
		Ekologik va xavfsizlik talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Agrokimyoviy tahlil tamoyillari va usullari
		Texnologik jarayonlar parametrlari
		Tuproqshunoslik va o'simlik fiziologiyasi asoslari
		O'simlikshunoslik va o'simliklarni tadqiq qilishga oid normativ hujjatlar va standartlar
		Raqamli qishloq xo'jaligi asoslari

		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	A1.02.5-Tahlil natijalarini rasmiylashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Tahlil natijalarini tizimli ro'yxatga olish va raqamlashtirish 2. Ilmiy va amaliy hisobotlar ishlab chiqish 3. Agrokimyoviy ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va xaritalash 4. Ma'lumotlarni tekshirish va arxivlash Ko'nikmalar: Tizimli hujjatlashtirishda ma'lumotlarni boshqarish Professional hisobot tayyorlash va taqdim etish GIS va vizualizatsiya vositalaridan samarali foydalanish Raqamli savodxonlik va integratsiya Kommunikatsiya va xalqaro hamkorlik Bilimlar: Agrokimyoviy tahlil usullari Tuproq va o'simlik kimyosi asoslari O'g'itlarning kimyoviy va ekotoksikologik xususiyatlari Agrokimyoviy tahlil standartlari va normativlari Raqamli agrokimyo asoslari Ekologik barqarorlik va agrokimyoviy monitoring asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tahlil natijalarining aniqligi, ishonchliligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi uchun to'liq javobgarlik
A2.5-Agrokimyoviy moddalar va pestitsidlarning sifatini nazorat qilish	A2.01.5-Sifat sinovlarini o'tkazish	Mehnat harakatlari: 1. Namuna yig'ish va tayyorlash 2. Keng qamrovli sifat sinovlarini o'tkazish 3. Xavfsizlik, toksiklik va ekologik ta'sir tahlilini amalga oshirish Ko'nikmalar: Ilg'or namuna tayyorlash Zamonaviy analitik usullardan foydalanish Laboratoriya jihozlarini boshqarish va maqbullashtirish Ma'lumotlarni tahlil va interpretatsiya qilish Xavfsizlik va ekologik standartlarga rioya qilish Raqamli va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish Bilimlar: Agrokimyoviy moddalar va o'g'itlar kimyosi Pestitsidlarning kimyoviy va toksikologik xususiyatlari Sifat va xavfsizlik standartlari Texnologik jarayon va laboratoriya jihozlari parametrlari Ekologik barqarorlik tamoyillari va kimyoviy moddalar monitoring usullari Raqamli agrokimyo asoslari Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	A2.02.5-Xavfli moddalar	Mehnat harakatlari: 1. Xavfli moddalar namunalarini yig'ish va tayyorlash

	monitoringini o'tkazish	2. Xavfli moddalar tahlilini o'tkazish
		3. Ekologik ta'sir va xavfni baholash
		4. Ma'lumotlarni tahlil qilish va hujjatlarni rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Namuna tayyorlashning murakkab usullari
		Ilg'or analitik usullardan samarali foydalanish
		Laboratoriya jihozlarini boshqarish va avtomatlashtirish
		Ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va xavfni oldindan baholash
		Bilimlar:
		Xavfli moddalar kimyosi va toksikologiyasi
		Agrokimyoviy moddalar va ularning ekologik ta'siri
		Xavfsizlik qoidalari va monitoring standartlari
		Zamonaviy analitik texnologiyalar
		Raqamli agrokimyo tadqiqot usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Xavfli moddalar monitoringi natijalarining aniqligi, ishonchliligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi uchun to'liq javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Spektrofotometrlarni tuproq, o'simlik va o'g'itlardagi ozuqa moddalari va organik birikmalarni aniqlash uchun laboratoriya tahlil asboblariidan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinovdan o'tkazish sifatini baholash bo'yicha texnik-laborant	
Mashg'ulot nomining kodi:	31421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Laboratoriya sharoitida kimyoviy moddalar bilan ishlashga cheklovning mavjud emasligi; Yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlik, hosil yig'ish yoki qisqa muddatli vazifalarni bajarishda stressli vaziyatlarda samarali ishlash	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	Agrokimyoviy tahlil laboranti
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5-Ekin navlarining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash	B1.01.5-Namuna olish va namunalarni tahlil uchun tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Namuna olish joyini aniqlash va tayyorlash
		2. Standartlashtirilgan namuna olish usullarini qo'llash
		3. Namunalarni markalash va hujjatlashtirish
		4. Namunalarni tahlil uchun tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Namuna olish standart usullaridan foydalanish
		Laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish
		Ma'lumotlarni qayd etish va tahlil qilish
		Sifat nazorati standartlariga rioya qilish
		Xavfsizlik texnikasiga muvofiq namunalarni tayyorlash
		Namunalar ifloslanishi oldini olish
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jalik ekinlari biologiyasi
		Namuna olish tartibi
		Laboratoriya tahlil usullari
		Sifat nazorati tizimlari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	B1.02.5-Fizik va kimyoviy tahlillarni	Mehnat harakatlari:
		1. Tahlil uchun namunani tayyorlash
		2. Fizik tahlillarni o'tkazish

	amalga oshirish	3. Kimyoviy tahlillarni o'tkazish
		4. Tahlil natijalarini tekshirish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Laboratoriya uskunalaridan foydalanish
		Laboratoriya tahlil usullaridan samarali foydalanish
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash
		Sifat nazoratini o'tkazish
		Ma'lumotlarni elektron rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Ekinlarning kimyoviy va fizik xususiyatlari
		Tahlil standartlari va metodologiyasi
		Laboratoriya uskunalarining ishlash tamoyillari va texnik parametrlari
		Kimyoviy xavfsizlik va ekologik talablar
		Statistik tahlil asoslari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tahlil natijalarining aniqligi va ishonchliligi uchun to'liq mas'uliyat
		2. Tahlil jarayonlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirish
B2.5-Sinov jarayonlarini monitoring qilish va hisobot tayyorlash	B2.01.5-Sinov jarayonlarini monitoring qilish va hisobot tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Sinov jarayonlarini tizimli rejalashtirish va kuzatish
		2. Sinov jarayonini nazorat qilish
		3. Ma'lumotlarni yig'ish va ro'yxatga olish
		4. Hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Monitoring vositalaridan samarali foydalanish
		Ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish
		Sifat nazorati standartlariga rioya qilish
		Jamoda samarali ishlash
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jalik ekinlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari
		Qishloq xo'jalik ekinlari sinov usullari
		Sifat nazorati tamoyillari
		Monitoring vositalari turlari va texnologiyalari
		Hujjatlarni rasmiylashtirish talablari
		Axborot texnologiyalari asoslari
	B2.02.5-Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
		2. Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish
		3. Hisobotlarni shakllantirish
		4. Hisobotlarni tekshirish va taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Statistik tahlil vositalaridan samarali foydalanish
		Hisobot tayyorlash va rasmiylashtirish
		Ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasida boshqarish

		Jamaoviy ishda samarali muloqat qilish
		Vaqtni samarali boshqarish
		Muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish
		Bilimlar:
		Qishloq xo'jalik ekinlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari
		Qishloq xo'jalik ekinlari sifat ko'rsatkichlari
		Statistik tahlil usullari
		Hisobot tayyorlash va taqdim etish talablari
		Axborot texnologiyalari asoslari
		Ekinlarni sinovdan o'tkazish bo'yicha normativ hujjatlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tahlil qilingan ma'lumotlarning aniqligi, hisobotlarning to'g'riligi va standartlarga muvofiqligi uchun to'liq mas'uliyat
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobot tayyorlash va natijalarni dastlabki sharhlash jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish		
Texnik va/yoki texnologik talab		Laboratoriya tahlil asboblariidan samarali foydalanish

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Suvanqulov Shohhusan Muxammad o'g'li
2	Toshkent davlat agrar universiteti O'quv-uslubiy boshqarmasi bosh mutaxassisi	G'afurov Jahongir Majid o'g'li
3	Toshkent davlat agrar universiteti O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida dotsenti	Tog'ayeva Sarvinoz Suyunovna
4	Toshkent davlat agrar universiteti Sabzavotchilik va issiqxona xo'jaligini tashkil etish kafedrasida mudiri	Yunusov Saloxiddinjon Adxamovich
5	Toshkent davlat agrar universiteti Mevachilik va uzumchilik kafedrasida mudiri	Namozov Ixtiyor Choriyevich
6	Toshkent davlat agrar universiteti O'simliklarni himoyasi va karantini kafedrasida dotsenti	Raximov Uchkun Xamrayevich
7	Toshkent davlat agrar universiteti Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrasida dotsenti	Toreyev Fozilbek Nurullayevich
8	Toshkent davlat agrar universiteti Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasida dotsenti	Xikmatov Sherzod Tuxtamurodovich
9	"Semrug' Cluster" MCHJ urug'chilik klasteri rahbari ish boshqaruvchi	Movlonov Farrux Boxodirovich